



**“YASHIL IQTISODIYOT”NING O‘ZBEKISTON UCHUN  
DOLZARBLIGI**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

**Raqamli iqtisodiyot fakulteti**

**Raqamli statistika (tarmoqlar va sohalar)**

**3-bosqich talabasi Shamiradova Sabina Byashim qizi**

e-mail: [sabinashamiradova@gmail.com](mailto:sabinashamiradova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu maqolada “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati, omillari, tamoyillari, va indikatorlari tahlil etilgan. O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini moliyalashtirish, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining maqsadi, vazifalari, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlarining mazmuni bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, iqtisodiyotni rivojlantirish, strategiya, qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik texnologiyalar, innovatsiyalar.

**Аннотация:** Данное исследование посвящено формированию зеленой экономики в Узбекистане и посвящен изучению зарубежного опыта развития. В данной статье рассмотрено формирование концепции «Зеленая экономика», этапы развития «зеленой экономики» анализируются необходимость, факторы, принципы и показатели перехода к «экономике». Описано финансирование процесса перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане, цели, задачи, этапы развития и приоритеты стратегии перехода к «зеленой экономике».



**Ключевые слова:** зеленая экономика, экономическое развитие, стратегия, возобновляемые источники энергии, экологические технологии, инновации.

**Abstract:** This research is about formation of green economy in Uzbekistan and dedicated to the study of foreign experience in development. In this article, the formation of the "Green economy" concept, stages of development, "green the necessity, factors, principles and indicators of the transition to "economy" were analyzed. Financing of the process of transition to the "green economy" in Uzbekistan, the purpose, tasks, development stages and priorities of the strategy of transition to the "green economy" are described.

**Key words:** green economy, economic development, strategy, renewable energy sources, ecological technologies, innovations.

“Yashil iqtisodiyot” – bu atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydigan iqtisodiy model. Bu o’tish nafaqat ekologik masalalrni hal qilish, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini ham yaxshilashga qaratilgan. “Yashil iqtisodiyot” (sustainable or green economy) hozirgi zamonning eng muhim iqtisodiy modellari qatorida bo‘lib, u atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslarni samarali boshqarish va iqtisodiy o‘shishni ekologik xavfsiz yo‘llar bilan ta’minlashga qaratilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston uchun “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish dolzarb masalalardan biridir, chunki mamlakat tabiiy resurslarga boy bo‘lishiga qaramay, barqaror rivojlanish uchun bir qator muammolarga duch kelmoqda.

“Yashil iqtisodiyot bo‘yicha chet ellik olimlar bir qancha izlanishlar olib brogan va ushbu konsepsiya jahon miqyosida keng tadqiq etilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Quyida bir nechta izlanishlar va olimlar fikrlarini ko‘rib chiqamiz:



1. Nicholas Stern Britaniyalik iqtisodchi va olim “stern Review on the Economics of Climate Change” (2006) deb nomlangan hisobotni tayyorlagan. Ushbu tadqiqotda u global iqlim o‘zgarishining iqtisodiy jihatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, u o‘z tadqiqotida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishni tezlashtirish zarurligini va buni kechiktirish esa qimmatga tushishi haqida yozgan.

2. Robert Costanza ekologik iqtisodiyot sohasida yetakchi olimlardan biridir. U “Ekologik iqtisodiyot” atamasini ommalashishida muhim rol o‘ynagan. Bundan tashqari, tabiat xizmatlari, ya’ni ekotizimlarning iqtisodiy qiymatini o‘lchashga ham katta e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlari yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy nazariy manbalaridan biri hisoblanadi.

3. Herman Daly ekologik iqtisodiyot asoschilardan biri bo‘lib, “Barqaror rivojlanish” va “Statik iqtisodiyot” tushunchalarini kiritgan. Herman Daly, iqtisodiy o‘sishni cheksiz davom ettirish mumkin emasligini, resurslar cheklanganligini va iqtisodiyot ekologiy qonunlariga rioya qilish kerakligini ta’kidlaydi. Uning ishlari “yashil iqtisodiyot” nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

4. Tim Jackson “Prosperity Without Growth” (O‘sishsiz farovonlik) asari orqali tanilgan. U “yashil iqtisodiyot”ni ekologik va inson farovonligi bilan bog‘liq o‘zgarishlar orqali amalga oshirish mumkinligini ta’kidlaydi.

5. Amory Lovins qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi bo‘yicha tadqiqotlari bilan mashhur. U “Rethinking energy” va “Natural Capitalism” kitoblari orqali “yashil iqtisodiyot”ni ilgari surgan. Lovinsning asosiy g‘oyasi shundaki, barqaror iqtisodiyotga o‘tish orqali mamlakat nafaqat ekologik zararlarni kamaytiradi, balki iqtisodiy jihatdan ham foyda oladi.

6. Paul Hawken “Natural Capitalism: Creating the Next Industrial Revolution” (Tabiiy Kapitalizm: Keyingi Sanoat Inqilobi) kitobi orqali “yashil iqtisodiyot”ga hissa qo‘shgan. U sanoat va ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik jihatdan barqaror qilgan holda iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini



ta'kidlaydi. Bu olimlarning izlanishlari "yashil iqtisodiyot"ning nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrab oladi va ushbu sohada keying tadqiqotlar uchun muhim asos yaratdi.

### **METODOLOGIYA**


O'zbekiston uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tish hozirgi va kelajakdagi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish nuqtai nazaridan juda dolzarbdir. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishimizning quyidagi muhim omillarga bog'liq:

1. Iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar. O'zbekiston mintaqasidagi qurg'oqchilik, suv resurslarining yetishmovchiligi, Orol dengizining qurishi kabi ekologik muammolar mamlakatimiz iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. "yashil iqtisodiyot" iqlim iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni qo'llab quvvatlaydi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va suvni tejash texnologiyalarini joriy etish. Global iqlim o'zgarishi bo'yicha Nicholas Stern "Stern review on the Economics of Climate change" (2006) deb nomlangan hisobotni tayyorlagan. Bu hisobotda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini tahlil qilgan.

2. Energiya manbalariga bog'liqlikni kamaytirish. Yurtimizning iqtisodiyoti ko'p jihatdan qazilma yoqilg'ilariga, xususan gaz va neftga bog'liq. O'zbekiston energetika va mineral resurslarga, jumladan, tabiiy gaz, oltin, mis, uran va ko'mir zaxiralariga boy 30 ta davlat qatoriga kiradi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida 5ta neftgazli (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Hisor, Surxondaryo va Farg'ona) va 4ta neft va gazga istiqbolli (Xorazm, O'rta-Sirdaryo, Markaziy-Qizilqum va Zarafshon) mintaqalari ajratilgan hamda ularda 270ta neft va gaz konlari ochilgan. 15 mart kuni tashkil etilgan «Yangi konlarni ochish orqali uglevodorodlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni joriy etish borasida belgilangan chora-tadbirlar» mavzusidagi matbuot anjumanida shu haqda ma'lumot berilgan.



Ta'kidlanishicha, so'nggi ikki yilda 11ta neft va gaz konlari ochilib, uglevodorod xom-ashyo zaxiralari o'sgan.«Prezident qarori bilan tasdiqlangan dasturga muvofiq, 2019 yilda 2D va 3D seysmik-qidiruv ishlarini o'tkazish, 16ta yangi obektni burg'ilashga tayyorlash, 15ta yangi maydonda burg'ilash ishlarini boshlash va 85ta izlov-qidiruv quduqlarini qurilishi bilan tugatish rejalashtirilgan», — deyiladi «O'zbekneftgaz» AJ xabarida. Ma'lumot uchun, bugungi kunda «O'zbekneftgaz» AJ qarashli korxonalar tomondan 154ta konda uglevodorod xom-ashyosi qazib chiqariladi. Oxirgi ikki yilda yangi Besqal'a, Quyi Surg'il, Uchtepa, Chordarboza Mirkomilquduq, Savatli, Shimoliy Suzma, Jayron, Tegirmon, G'arbiy Tegirmon va Uzunshor konlari o'zlashtirilib, ishga qo'shildi va 148 ta yangi quduqlar burg'ilangan.




**1-jadval**

**Ushbu 1-jadvalda** O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i va energiya energosamaradorligini (dastlabki,) 2023-yil statistikasini ko'rishimiz mumkin (1000 tonna neft ekvivalentida). Iqtisodiy model tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligidan mamlakat faol foydalanadi, ammo bu yondashuv mamlakat uchun qimmatga tushmoqda.



Aholi uchun bu resurslardan olinadigan foyda chegaralangan, atrof-muhitga salbiy ta'siri esa juda yuqori. 2016-yildagi so'nggi natijalarga ko'ra, keng tarqalgan yer degradatsiyasi yalpi ichki mahsulotning 4 foiziga teng yo'qotishlarga olib kelgan. O'zbekiston butun dunyoda suvdan samarasiz foydalanuvchi davlatlar qatorida turadi, bunga sabab mamlakatdagi qishloq xo'jaligi sohasidir.



**2-jadval**

2016 – 2023-yillarda respublikamizda elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari:

2016 – 2023-yillarda respublikamizda elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari:

- 2016-yil – 59,0 mlrd kVt-soat;
- 2017-yil – 60,7 mlrd kVt-soat;
- 2018-yil – 62,8 mlrd kVt-soat;
- 2019-yil – 63,6 mlrd kVt-soat;
- 2020-yil – 66,4 mlrd kVt-soat;
- 2021-yil – 71,3 mlrd kVt-soat;



- 2022-yil – 74,3 mlrd kVt-soat;
- 2023-yil – 78,0 mlrd kVt-soat\*.

2023-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagiga nisbatan 19 mlrd kVt-soat yoki 32,2 foiz ko‘pni tashkil etdi. O‘zbekistonda yiliga 60 mlrd. KVt / s elektr energiyasi ishlab chiqariladi, shundan 10% gidroelektrostantsiyalar va 90% issiqlik elektr stantsiyalari tomonidan ishlab chiqariladi.

3. Resurslarni samarali boshqarish. “yashil iqtisodiyot” tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Mamlakatimizda suv resurslari muammosi juda dolzarb, ayniqsa qishloq xo‘jaligi sektorida. Qishloq xo‘jaligi suvni tejash texnologiyalari va ilg‘or sug‘orish tizimlari joriy etilishi resurlarini boshqarishga yordam beradi.

4. Yangi ish o‘rinlari va iqtisodiy o‘sish “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish yangi sohalarni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza texnologiyalar sohasida yangi imkoniyatlar ochiladi. Bu jarayon O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishini mustahkamlashga hissa qo‘shadi va aholi bandligini oshirish imkonini beradi.

5. Xalqaro majburiyatlar va integratsiya. O‘zbekiston global iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij kelishuvi kabi xalqaro bitimlarga qo‘shilgan. Bu kelishuvlar doirasida yurtimiz uglerod izini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha maqsadlarni amalga oshirishga majbur. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish ushbu majburiyatlarni bajarishda yordam beradi va O‘zbekistonning xalqaro arenada ekologik masalalarda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

6. Sog‘liqni saqlash va hayot sifati. “Yashil iqtisodiyot” faqatgina iqtisodiy rivojlanishni emas, balki jamiyat salomatligini yaxshilashni maqsad



qiladi. Atrof-muhit ifloslanishining kamayish va tabiiy resurslardan toza foydalanish aholining umumiy sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Toza havo, toza suv va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari hayot sifatini oshiradi.

7. Investitsiyalar va texnologiyalar. "Yashil iqtisodiyot" xalqaro investitsiyalar va texnologiyalarni jalb qilish uchun ham qulay sharoit yaratadi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va davlatlar "yashil iqtisodiy" loyihalarni qo'llab-quvvatlashga tayyor. Bu esa davlatimiz uchun yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish yurtimiz uchun iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish, resurslarni samarali boshqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish va xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun muhim. Bu yo'nalishdagi chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki aholi farovonligi va sog'lig'ini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda bir qator muvaffaqiyatli tajribaga ega bo'lgan davlatlardan andaza olishi mumkin. Quyida ba'zi mamlakatlarni keltiramiz:

1. Germaniya "yashil iqtisodiyot" va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida dunyoda yetakchi davlatlaridan biri hisoblanadi. U Energiewende (energetik o'zgarish) deb nomlangan milliy strategiyani ishlab chiqqan bo'lib, bu strategiya orqali ko'mir va atom energiyasidan voz kechib, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishni maqsad qilgan. Germaniya quyosh va shamol energetikasi bo'yicha katta yutuqlarga erishgan, bu esa energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

2. Janubiy Koreya 2008-yilda "Yashil o'sish" (Green Growth) strategiyasini e'lon qilib, iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik bilan



bog'lashga intilgan. Ushbu strategiya asosida Koreya qayta tiklanuvchi energiyaga sarmoya kiritib, energiya samaradorligini oshirish va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bir qator islohotlarni amalga oshirgan.

3. Daniya shamol energiyasi va energiya samaradorligi bo'yicha dunyoda yetakchilik qilmoqda. U elektr energiyasining katta qismini shamol elektr stansiyalari orqali ta'minlaydi va energiya iste'molining sezilarli qismini qayta tiklanadigan manbalardan oladi. Daniya yashil texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ham katta yutuqlarga erishgan.

4. Xitoy 2000-yillardan boshlab yashil iqtisodiyotga katta e'tibor qaratib, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va karbonat chiqindilarni kamaytirishga yo'naltirilgan strategiyalarni joriy qildi. Xitoy qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishda global yetakchilikni qo'lga kiritdi va keng ko'lamda yashil texnologiyalarga sarmoya kiritdi.

5. Shvetsiya "yashil iqtisodiyot" bo'yicha dunyodagi eng ilg'or davlatlardan biri bo'lib, u tabiiy resurslardan foydalanishning samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va energiya ta'minotini qayta tiklanuvchi manbalarga asoslashda katta muvaffaqiyatga erishgan.

O'zbekiston "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda Germaniya, Janubiy Koreya, Daniya, Xitoy va Shvetsiya kabi davlatlardan andoza olsa bo'ladi. Ushbu davlatlarning har biri qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, ekologik innovatsiyalar va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha turli muvaffaqiyatli tajribalarga ega. Ushbu tajribalarni o'rganish orqali O'zbekiston "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda o'zining milliy strategiyalarini ishlab chiqishi va muvaffaqiyatga erishishi mumkin.



**Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki**, “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish mamlakatimiz uchun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham dolzarbdir. Bu jarayon yurtimizning barqaror rivojlanishini ta’minlash, tabiiy resurslarni asrash va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish maqsadida “yashil iqtisodiyot” yo‘nalishidagi siyosat va investitsiyalarni kengaytiridhi zarur. O‘zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli “yashil iqtisodiyot”ga o’tish strategiyasida ham asosiy to‘rtta ustuvor yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirishga, iqlim o‘zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Pirovardida ta’kidlash lozimki, kelajakda iqtisodiyot taraqqiyotini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu yo‘nalishda esa muqobil energiya manbalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Demak, davlatimiz rahbarining yangi qarori asosida bu borada boshlangan ishlar miqyoslari yanada kengayadi, samaradorligi esa ortaveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi stat.uz agentligi sayti
2. O‘zbekiston respublikasi Elektr energiyasi vazirligi sayti
3. Yormonqulova Nargiza Ikromjon qizim Qo‘qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedراسi o‘qituvchisi “Yashil iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati va O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”
4. “Yashil iqtisodiyot” darsligi mualliflari N.H.Hakimov, O.M.Ahmedov, A.A.Abdumalikov, Z.B.Sharipova



5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (O‘zR ITKQV), Jahon banki va Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) xodimlarining manbasi

6. Axmatov Shoxrux Tog‘aymurot o‘g‘li O‘zMU “Makroiqtisodiyot” kafedrasida magistranti “O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda xorij tajribasini o‘rganish”

7. Nicholas Stern “Stern Review on the Economics of Climate change” (2006) hisoboti

8. Tim Jackson “Prosperity Without Growth” (O‘shisiz farovonlik)

9. Amory Lovins “Rethinking Energy” va “Natural Capitalism”

10. Paul Hawken “Natural Capitalism: Creating the Next Industrial Revolution” (Tabiiy Kapitalizm: Keyingi sanoati inqilobi)